

## DORILFUNUNGA

**Jo'raboyeva Muhsina**

*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*

O'zbekiston Milliy Universitetining 105 yilligiga bag'ishlov

Qad ko'tardi buyuk Turkiston,  
Bag'ri ozod but bo'ldik do'stim!  
Yo'li ravon,yorug' nuriston,  
Dovon osha yurt bo'ldik do'stim!

Bir manzilda tirgakladi xalq,  
Toshkent!  
Ulkan dilga aylandi!  
Dorilfunun bunyod bo'lar vaqt,  
Qozoq,o'zbek elga aylandi.

Mashaqqatning zimmasi og'ir,  
Yuki botin keldi dargohning.  
Urush bosgan shumniyat sag'ir,  
Buzmoq ishi...  
Muqim dargohni.

1918-  
(ming to'qqiz yuz o'n sakkizinchi)  
Muhrlandi eng muhim sana,  
Aprelnoma-  
Turonga xush baxt.  
Ming ikki yuz ilm odamin,  
Zalolatdan uyg'otdi,xushvaqt!

Dastlab-  
Yiroq eng oliy maqom,  
Ilk ta'rifi "Kombinat" edi.  
Garchi,xunik yangradi bu nom,  
Davr yili "Nurniyat" edi.

Har sohada jamlidik shu on,  
Yigirmadan oshdik,yuksaldik.  
Teng emasdi,barcha savodxon,  
AYRILIKDAN QOCHDIK,YUKSALDIK!

1991

(Ming to'qqiz yuz to'qson bir)  
 Sharq huquqning maqomi o'zga,  
 Binolarda yuksaldi bunyod.  
 Markazlashib o'n olti manba,  
 "Milliylik"ka eltdi safarbod.

Daydi o'ylar yo'lasa ham-ki,  
 O'zbek shoni o'zlik ketmadi.  
 Ne "Qorilar" berding bu yurtga?  
 Qay "Mavlono" sendan o'tmadi?

Niyoziyalar ko'rgan bu maskan,  
 Chin huquqlar tiklandi qayta.  
 Ming-ming qadim olimlaringni...  
 Sanog'iga yetolmam ayta?

Yo'q!Sharafga uchganimiz yo'q,  
 Ko'z tikmadik, butdir haddimiz.  
 Necha asr o'tmoqda toki-  
 Bukilmagay asl qaddimiz.

O!Shoirlar yashadi senda,  
 Sayqal topib so'z jilolari.  
 Oripov va Vohidovlardek,  
 Tanildi xalq qahramonlari!

Dorilfunun!Sen mening baxtim,  
 Ming ilmdosh muborak bo'lsin!  
 Ko'ksimdagi eng ulkan faxrim,  
 Tabarruk yosh muborak bo'lsin!

O'zbekisron Milliy Universiteti talabasi Jo'raboyeva Muhsina.

Inoyat

Vatan!

Meni bir bor bag'ringga bosgin,  
 Tog'laring ortidan jo'shib hayqiray.  
 Fido bo'lsin senga tandagi jonim,  
 Meni bolam desang aytgin na qilay?

Vatan!

Ulkan unvon uchun sevmadim,

Balandparvoz gaplar aytgim yo'q aslo.  
Qanday farzand bo'ldim,garchi bilmadim?  
O'zing...Yuragimdan yangragan navo.

Mehring sevib o'tsa butun umrim ham,  
Kuylab o'tsa mayli qalam lashkari.  
Ich-ichimga sig'may porlab ketaman,  
She'rlarim baxshida bo'lgani sari.

So'zim sayqal topar oftob yuzida,  
Go'zal so'z izlayman ajib,bejirim.  
Noming ulug'lashga so'z topolmasam,  
She'rlarim she'r bo'lmas,so'rar kechirim.

Doim ilhomlanib samo-yu,yerdan,  
Erkin bo'y ko'rsatar baxtning lolasi.  
Ollohim menga bir inoyat bergan,  
Tug'ulganman bo'lib o'zbek bolasi!